

TA'LIM TIZIMIDA JAMOADAGI SOG'LOM MUHITNI YARATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ravshanqulova Latofat Abdujalilovna

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani

9-umumta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratishda psixologik xizmatning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Sog'lom psixologik muhit ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilar va pedagoglarning ruhiy salomatligini ta'minlash hamda ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari, profilaktik, diagnostik va korreksion faoliyatining mazmuni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixologik xizmat, sog'lom muhit, ta'lim tizimi, jamoa, psixologik iqlim, o'quvchilar, pedagoglar, ruhiy salomatlik, muloqot, profilaktika.

KIRISH

Ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhitni yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Sog'lom psixologik muhit deganda jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, hamkorlik va samimiy munosabatlarning mavjudligi tushuniladi. Bunday muhit o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, pedagoglarning kasbiy faoliyatiga va ta'lim sifatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik xizmat ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilar, pedagoglar va ota-onalarning psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasasida ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishdan iboratdir.

Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlaridan biri psixologik diagnostika hisoblanadi. Diagnostik tadbirlar orqali o'quvchilarning individual xususiyatlari, emotsional holati, qiziqishlari va ehtiyojlari o'rganiladi. Bu esa o'z vaqtida muammolarni aniqlash va ularga tegishli yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Psixologik profilaktika sog'lom muhit yaratishning muhim omillaridan biridir. Profilaktik tadbirlar orqali nizolar, zo'ravonlik, stress va deviant xulq-atvorning oldini olish, o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga erishiladi. Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'quvchilarning emotsional barqarorligini mustahkamlash, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va shaxsiy muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Psixologik treninglar o'quvchilarning jamoaga moslashuvi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasida pedagoglar bilan ishlash ham psixologik xizmatning muhim yo'nalishlaridan biridir. O'qituvchilarning kasbiy zo'riqligini kamaytirish, emotsional

kuyish sindromining oldini olish va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish jamoada sog'lom muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik psixologik xizmatning samaradorligini oshiradi. Psixolog tomonidan o'tkaziladigan maslahatlar, seminarlar va treninglar ota-onalarning psixologik bilimlarini boyitadi va farzandlar bilan to'g'ri munosabat o'rnatishiga yordam beradi. Jamoada sog'lom psixologik muhitning mavjudligi o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni, o'qishga bo'lgan motivatsiyani va ijtimoiy faollikni oshiradi. Shuningdek, bunday muhit pedagoglar o'rtasida hamkorlik va kasbiy samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi.

Jamoadagi psixologik zo'riqlashlarni bartaraf etish, ta'lim muassasasi rahbari va bo'ysunuvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, mehnat faoliyatini tashkil etishga doir takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do'stona va hamkorlik munosabatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Dasturni amalga oshirish natijasida quyidagi ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit ko'rsatkichlari vujudga kelishi mumkin:

- jamoada ishbilarmonlik, ish kuni davomida ijodiy kayfiyat, xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda quvnoq ohanglar va optimistik ruh hukmron bo'ladi;
- munosabatlar hamkorlik, o'zaro yordam va xayrixohlik tamoyillari asosida quriladi; guruh a'zolari hamkorlikdagi ishlarda qatnashishni, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishni yoqtiradilar; munosabatlarda ma'qullash va o'zaro qo'llab-quvvatlash ustunlik qiladi, konstruktiv tanqid rivojlanadi;
- tashkilot xodimlari faol, kuch-qudratga to'la bo'lib, o'zaro yordamga tezkor javob beradilar, zarur hollarda hamkasbini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'ladilar;
- ayrim xodimlarning yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari tashkilotning barcha a'zolarida hamdardlik va samimiy ishtirok hissini uyg'otadi, muvaffaqiyatga erishilganda esa xodimlar o'z hamkasblari va tashkiloti bilan faxrlanadilar;
- tashkilot tarkibidagi bo'linmalar yoki jamoaning mikroguruhlarida o'zaro kelishuv, tushunish va hamkorlik yuzaga keladi;
- kadrlar qo'nimsizligi past bo'ladi. Xodimlar boshqa tashkilotlarga teng, ba'zan esa yuqori lavozimlarga o'tkazilishdan ham bosh tortadilar;

- tashkilot uchun qiyin paytlarda jamoaning jipsligi va hissiy birligi namoyon bo'ladi ("Bitta — hamma uchun, hamma — bir kishi uchun").

Muhitni sog'lomlashtirishda psixokorreksion yordamning samaradorligini baholash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu mutaxassisning ta'sir ko'rsatish imkoniyati va psixokorreksion ishning sifatiga bog'liqdir.

Ishning samaradorligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur.

Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki amaliy faoliyatda psixologlar turli metodlardan foydalanadilar.

Hatto bir metod turli mutaxassislarda turlicha natija berishi mumkin.

Ishning bahosini ushbu metoddan xabardor bo'lmagan ekspert berishi maqsadga muvofiq.

Psixologning tarbiyaviy va ta'limiy sifatlarini hisobga olish kerak.

Psixologning kasbiga bo'lgan qiziqishini e'tiborga olish zarur.

Guruhiy korreksion ishda psixologning professionalligi katta ahamiyatga ega.

Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta'sirdan so'ng quyidagilarga ko'ra baholanadi:

ichki kechinmalarning subyektiv mohiyati o'zgarganligi;

ta'sirdan so'ng respondentning ijobiy tomonga o'zgarganligi;

psixologik ta'sir samarasini belgilashda psixofiziologik metodlardan foydalanish mumkin.

Ular insonning vegetativ-somatik, fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaradorlik mezoni har bir shaxsdagi salbiy o'zgarishlarning o'ziga xosligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar aynan shu o'zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog'liqdir.

Maqsad: profayling o'tkazuvchi xodimlarning kuzatuvchanlik sifati shakllanishining psixologik jihatlarini o'rganish orqali kuzatuvchanlik sifatini rivojlantirish.

Bu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi:

- kuzatuvchanlik sifatining muhim xarakterga ega ekanligini anglab yetishga ko'maklashish;
- tabiiy kuzatish usullarini o'rgatish va obyektiv xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish;
- nizoli vaziyatlarda o'z xulq-atvorini korreksiya qilish malakasini shakllantirish;

- o‘z emotsiyalarini to‘g‘ri namoyon qila bilish va agressiv reaksiyalarni jilovlashga qaratilgan bilimlarni hosil qilish;
- boshqa odamlarning kechinmalari, holati va qiziqishlarini tushunishga yordam berish;
- shaxslararo nizolarni konstruktiv hal etish bilimlarini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O‘qituvchi-xodimlarda kuzatuvchanlik sifati darajasining oshishi;
- Xodimning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z-o‘ziga bahosining adekvat holatga kelishi;
- Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulq-atvorni me‘yorda ushlab turish;
- O‘zi va boshqalarning emotsional holatini solishtirish hamda o‘zidagi emotsional zo‘riqlashlarni kamaytirish.

O‘qituvchi alohida e‘tibor talab qiladigan obyektidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, odatda o‘qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘ladilar.

Hamma gap psixologning o‘zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o‘qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o‘ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- pedagog bilan bo‘lgan munosabatga nisbatan ijobiy ustanovka;
- pedagoglarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishga ustanovka;
- subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Ta’lim jarayonida bunday pozitsiya pedagoglar bilan konstruktiv hamkorlikni ta’minlay oladi. Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo‘lmaydigan faktdir. Jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki har qanday mehnat jamoasi oldiga qo‘yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin yaratiladi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu mehnat jamoasi a’zolarining o‘z kasbidan qoniqqanligidir. Chunki jamoada ijobiy muhit bo‘lishi uchun jamoa a’zolari o‘zidan, ayniqsa, o‘z kasbidan qoniqqan bo‘lishlari zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘qituvchilarda mehnatdan qoniqqanlikni o‘rganish hamda o‘z mehnatidan

qoniqmaslik holatlarini korreksiya qilish orqali pedagogik jamoalarda ijobiy muhitni shakllantirish, pirovardida ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashga ta'sir ko'rsatish maqsad qilingan. E'tiborga olish kerakki, pedagogik faoliyat "odam–odam" tipiga mansub kasb hisoblanadi. Agar mazkur soha egalarida o'z kasbiga nisbatan loqaydlik, e'tiborsizlik yoki sustkashlik vujudga kelsa, bevosita pedagogik faoliyat obyekti bo'lgan o'quvchilar zarar ko'radilar. Bu zarar ta'lim-tarbiya sifatining pasayishida o'z aksini topadi. Pedagogik jamoalarda psixologik muhit masalasi bir tomondan muayyan mehnat jamoasidagi psixologik muhit sifatida talqin qilinishi mumkin, ikkinchi tomondan esa pedagogik jamoaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, murakkab ijtimoiy-psixologik va pedagogik jarayonlar zamirida yuzaga keladigan, pedagog shaxsining individual xususiyatlari va turli psixologik fenomenlarga boy serqirra ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun obyekti hisoblanadi. Jamoaning ijtimoiy-psixologik muhiti — guruhning eng muhim psixologik xarakteristikalaridan biri bo'lib, guruhning birgalikdagi hamkorlik faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan alohida obyektlar, hodisalar va jarayonlarni aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy jarayondir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida jamoada sog'lom muhitni yaratishda psixologik xizmatning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Psixologik diagnostika, profilaktika, korreksion ishlar va maslahat faoliyati orqali ta'lim muassasasida ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish mumkin. O'quvchilar, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi sog'lom va samarali ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Davletshin M.G. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2017.
5. Carl Rogers. Freedom to Learn. – Boston, 1969.
6. UNESCO. School Health and Well-Being. – Paris, 2021.
7. World Health Organization. Mental Health Promotion in Schools. – Geneva, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.